



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 278 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Oллоbergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
<i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
<i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
<i>Go'zal Qurbonova</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
<i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i>	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
<i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i>	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
<i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
<i>Panayeva Maloxat Muminovna</i>	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
<i>Багдасарова Диана Левоновна</i>	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
<i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i>	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
<i>Abdullayev O'tkir Sadullayevich</i>	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
<i>Avezov Davronbek Soburovich</i>	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
<i>Erkaboyeva Nigora Shermatovna</i>	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
<i>Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna</i>	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
<i>Nazarov Alisher Narimanovich</i>	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	171
<i>Qodirov Jahongir Neymat o'g'li</i>	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari.....	176
<i>Qosimova Xolida Nabiyevna</i>	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
<i>Raxmatullayeva Durdoni Fazliddin qizi</i>	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling.....	182
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.</i>	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
<i>Toshboltayeva Nodira</i>	
Роль интерактивного лингвокультурологического пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений.....	191
<i>Рустамова Ферузахон Махмуджановна</i>	

Talabalarining darsdan tashqari vaqtda mustaqil ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini shakllantirish	196
Dusanov Shuxrat Abdiraakovich	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari	201
Qosimova Xolida Nabiyevna	
Jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari	205
Xoliqnazarov Azamat Begaliyevich	
Oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlashni fanlararo integratsiya asosida shakllantirish	209
Allanazarova Dilobar Baxromovna	
"Alpomish" dostonida obrazlar nutqidagi pedagogik qarashlar	213
Boboqulova Aziza Adizovna	
Researching the Biochemistry and Physical Chemistry of Oral Fluid in Kids Who Are Acting Strangely	217
Eraliyeva Zulfiya Makhmudovna, Buzrukhoda Javohir	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mikro matnlarni o'qitishga qaratilgan kognitiv metodlar	222
I. Matrasulova	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli didaktik vositalardan foydalanish metodikasi	225
Komilova Dilnozaxon Abdulhayevna, Xoliqova Mubinabonu Jamoliddin qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida onomastik leksikani lingvokulturologik yondashuv asosida o'qitishning strategik-metodik asoslari	229
Mamatqulova Baxtixon Ravshanovna	
Raqamli matnlarning lisoniy va pragmatik xususiyatlari	232
Mashrapova Sevara Xabibovna	
Extensive Pelvic Ureteral Abnormalities and Reconstructive Operations in Patients	237
Mukhsinov Sardor	
Pedagogikada metodlardan foydalanish	241
Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna	
Diqqat yetishmasligi giperaktivlik buzilishini davolash usullari	245
Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna	
Talabalardagi sanogen tafakkurning psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etish masalasi	249
Tulyaganova Dilnoza Ulug'bek qizi	
Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning xorijiy va milliy tajribasini qiyosiy tahlil qilish	253
Abdullayev Sherzodbek	
Context, Intention, and Meaning in English Language Teaching: Developing Pragmatic Awareness in Learners of English as a Foreign Language	256
Keldiyarova Shakhriyozoda, Keldiyarova Mohlaroyim	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni steam yondashuvi yordamida og'zaki muloqotga o'rgatish mashqlar tizimi	267
Yunusova Malika Miralimovna	
Культурные и исторические коды Франции в автобиографической прозе Марселя Паньоля	270
Рахманкулова Дилафруз Азимовна	
Трансформация роли преподавателя в условиях цифровизации высшего образования	274
Рахматова Нигина Исламовна	



PEDAGOGIKADA METODLARDAN FOYDALANISH

Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna
 Urganch RANCH texnologiya universiteti
 “pedagogika va aniq fanlar” kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Ta'lim metodlari o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi faoliyati hamda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisidir. Mazkur maqolada pedagogik ta'lim metodlari, ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishi yuzasidan ilmiy fikr-mulohazalar va amaliy takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, ta'lim usuli, ta'lim metodi, ma'ruza metodi, diskussiya metodi, colloquia metodi, case study metodi, illyustratsiya metodi, demonstratsiya metodi, hikoya metodi, suhbat metodi.

Abstract: Teaching methods are a set of approaches used by teachers to organize students' learning activities and solve various didactic tasks aimed at mastering the studied material. This article presents scientific views, practical recommendations, and proposals regarding pedagogical teaching methods and the effective application of these methods in the educational process.

Key words: pedagogy, teaching method, instructional technique, lecture method, discussion, colloquia method, case studymethod, illustration method, demonstration method, storytelling method, conversation method.

Аннотация: Методы обучения представляют собой совокупность способов организации преподавателем учебно-познавательной деятельности обучающихся и решения различных дидактических задач, направленных на усвоение изучаемого материала. В данной статье представлены научные рассуждения, практические рекомендации и предложения, касающиеся педагогических методов обучения и особенностей их применения в образовательном процессе.

Ключевые слова: педагогика, метод, приём обучения, метод лекции, дискуссия, метод colloquia, метод case study, метод иллюстрации, метод демонстрации, метод рассказа, метод беседы.

KIRISH

Metod – usul va texnologiyani anglatadi. Ta'lim metodi tushunchasi ancha murakkabdir. Shu bois pedagogikada uning tobora aniqroq talqini xususidagi munozaralar hanuzgacha davom etmoqda. Ko'pchilik mutaxassislar ta'lim metodini o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usuli deb hisoblaydilar. Shu qoidani boshlang'ich nuqta sifatida qabul qilib, mazkur tushunchani batafsilroq ko'rib chiqish va uning ilmiy ta'rifini yoritishga harakat qilamiz. Metod so'zi yunoncha bo'lib, “tadqiqot”, “maqsadga erishish yo'li”, “usul” ma'nolarini anglatadi. Metod eng umumiy ma'noda maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyatdir. Ko'rinadiki, bu o'rinda o'qituvchining o'rgatuvchi faoliyati va u tashkil etgan o'quvchilarning faol o'quv-bilish jarayoni o'zaro uyg'unlashadi. Ta'lim metodlari deganda o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi faoliyati hamda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisi tushuniladi. Pedagogikada, shuningdek, ta'lim usullari atamasi ham keng qo'llaniladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadga erishishni kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir. Har qanday pedagogik texnologiya, jumladan, umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilgan texnologiya ham o'zaro hamkorlik, muloqot va ularning bir-biriga ta'siri asosida quriladi. Bunda o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil

etish va boshqarish tamoyillari, usullari hamda umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi metod va vositalarni puxta egallagan bo'lishi lozim.

Shuningdek, u talabalar faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan samarali hamkorlik qilish, muloqotga kirishish, pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muammo va qarashlarni birgalikda hal etish, auditoriyada ijodiy hamkorlik va ishchanlik muhitini yaratishga xizmat qiluvchi shakl hamda metodlardan samarali foydalana olishi zarur. Shu jihatdan ushbu maqolada ta'lim jarayonida foydalaniladigan hikoya, suhbat, ma'ruza kabi metodlar, shuningdek, case study, colloquia va diskussiya kabi ta'lim metodlarining tavsifi berilgan. Maqola davomida eksperiment va analiz metodlaridan ham samarali foydalanilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim usuli – ta'lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomonidir. Metod va usul o'zaro uzviy bog'liq tushunchalardir. Ular butun va qism sifatida bir-birini to'ldiradi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining ma'lum bir qismi hal qilinadi. Bir xil metodik usullar turli metodlarda qo'llanilishi mumkin. Aksincha, ayni bir metod turli o'qituvchilar tomonidan turli usullarda amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim usuli – o'qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomonidir. Usul va metod butun hamda qism sifatida bir-biriga bog'liqdir. Usullar yordamida faqat o'quv vazifasining ma'lum bir qismi hal qilinadi. Masalan, o'qituvchilar tomonidan ko'p qo'llaniladigan mashq manbasiga ko'ra amaliy metod hisoblansa, uni qo'llash bir necha usullar yordamida amalga oshiriladi: mashq qoidasini o'qib berish (1-usul), bittasini namuna sifatida bajarib ko'rsatish (2-usul), o'qituvchi namunasi asosida o'quvchilar tomonidan mashqni bajarish (3-usul), o'quvchilar bajargan mashqlarni tekshirish va xatolarini tuzatish (4-usul) va boshqalar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik tadqiqotlar ko'rsatadiki, ta'lim metodlari nomenklaturasi (nomlanishi) va tasnifi ularni ishlab chiqishda tanlangan yondashuvga bog'liq holda juda xilma-xil ekanligi bilan xarakterlanadi. O'qitish metodlari pedagogikaning asosiy metodlaridan hisoblanadi:

Ta'limiy o'yinlar yoki raqobat metodi – o'yinlar va raqobat orqali o'qitish guruhdagi shaxsning boshqalarga nisbatan ustunroq jihatlarni aniqlashga yordam beradi.

Brainstorming – ijodiy fikrlarni to'plash uchun o'tkaziladi. Bunda ishtirokchilar tanqid va kesatiglarsiz muayyan muammo yuzasidan o'z fikrlarini ochiq-oydin bayon etadilar hamda ushbu muammoning yechimini izlaydilar. Masalan, o'quvchilarga dunyodagi ocharchilik muammosi haqida fikr bildirish vazifasi topshirilsa, ular o'z fikr-mulohazalarini birin-ketin bayon qiladilar. Barcha fikrlar qayd etib olingach, ushbu muammoni hal etishning eng maqbul variantlari ko'rib chiqiladi.

Case study – ushbu ta'lim metodida bitta talaba yoki odatda bir guruh talabalar sodir bo'lgan voqea yoki muayyan vaziyat tafsilotlarini tahlil qiladilar. So'ng ular aniq va asosli xulosaga kelishdan oldin vaziyatni muhokama qiladilar hamda mavjud bilim va tushunchalarni amalda qo'llaydilar. Texnologiyalar bilan ta'minlangan case study ko'proq tibbiyot ta'limida qo'llaniladi. Bunda tibbiy tarix, bemorning simptomlari, ko'rgazmali materiallar, turli klinik holatlar va mutaxassislarning xulosalari bilan bog'liq resurslardan foydalaniladi. Talabalar berilgan barcha ma'lumotlarni tahlil qilib, muhokama qilgan holda xulosaga keladilar. Mazkur metod turli sohalarda samarali bo'lib, talabalarni ko'plab axborot manbalari bilan ishlashga o'rgatadi, guruhli va masofaviy ta'lim muhitida ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchi barcha materiallarni mustaqil yaratishi shart emas, chunki zarur ma'lumotlarning aksariyati ishonchli internet manbalarida mavjud. O'qituvchi mavzu bo'yicha yo'nalish va savollarni beradi, tegishli manbalarni tavsiya qiladi, talabalar esa ular orqali vaziyatni, asosiy tushunchalarni, o'xshash misollarni va zarur izohlarni o'rganadilar. Bundan tashqari, talabalarning turli shakldagi muloqotlarda ishtirok etishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiziqishlar markazi – muayyan mavzuga oid turli kolleksiya va ekspozitsiyalar orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, o'quvchilarga o'zlarining etnik kelib chiqishini izohlovchi materiallar hamda oila shajarasi rasmlarini maktabga olib kelish va ularni sinfdoshlariga taqdim etish vazifasi beriladi. Bu metod o'quvchilarning dunyo xalqlarining kelib chiqishini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni boshqa madaniyat vakillarini hurmat qilishga o'rgatadi.

Colloquia – sinfdagi o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib taklif etilgan mehmonlar o'z faoliyati va kasbi haqida ma'lumot beradilar. Masalan, sinfga taklif etilgan sozanda o'z kasbi va faoliyati haqida so'zlab beradi hamda jonli ijro orqali o'quvchilarda musiqaga bo'lgan qiziqish va muhabbatni shakllantiradi.

Hamkorlikda o'qitish – yuklatilgan vazifa va muammolarni guruh bo'lib hal etishga o'rgatadi.

Diskussiya – muayyan mavzu, vaziyat yoki holatni muhokama qilish metodidir. Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlardan samarali foydalanish dars mashg'ulotlarining qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.



Hikoya – o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarni yaxlit yoki qismlarga ajratgan holda tasviriy vositalar yordamida obrazli, ixcham va izchil bayon qilish metodidir. Ushbu metodning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining nutq mahorati, so'zlarni o'rinli va ifodali qo'llashi, shuningdek, o'quvchilarning yoshi va rivojlanish darajasini hisobga olgan holda yondashishiga bog'liq. Shu bois hikoya mazmuni o'quvchilarning mavjud bilimlariga tayangan holda ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyani zarur axborotlar bilan boyitish maqsadga muvofiqdir. Hikoya qilinadigan material maxsus reja asosida bayon etiladi. O'qituvchi har bir darsning maqsadini aniq belgilaydi va asosiy tushunchalarga alohida e'tibor qaratadi.

Suhbat – savol-javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi bo'lib, u pedagogikada qadimdan ma'lum. Hatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lim jarayonida aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati kabi sifatlarni shakllantiradi. Eng muhimi, u o'quvchilarning faolligini oshiradi. Suhbat o'qituvchi fikriga mos ravishda harakat qilish va yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallash imkonini beradi. Ushbu metodni samarali tashkil etish uchun savollarni puxta tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta'minlash hamda barcha o'quvchilarning diqqatini jalb etish talab etiladi. O'qituvchi sodda va tushunarli savollar berishi, javob berish uchun yetarli vaqt ajratishi hamda javoblarni diqqat bilan tinglab, zarur o'rinlarda izoh berishi lozim. Suhbat deduktiv yoki induktiv yo'l bilan tashkil etilishi mumkin. Deduktiv suhbatda o'quvchilar oldindan ma'lum bo'lgan qoidalar, tushunchalar va hodisalar asosida tahlil yuritib, xususiy xulosalarga keladilar. Induktiv suhbatda esa alohida dalil va tushunchalar tahlili asosida umumiy xulosa chiqariladi. Suhbat o'quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazorat qilish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda samarali hisoblanadi. U kirish, yakuniy, individual va guruhli shakllarda tashkil etiladi.

Tushuntirish – o'quv materiali mazmunini isbotlash, tahlil qilish, umumlashtirish va taqqoslash asosida bayon qilish metodidir. Bu metod hikoyaga nisbatan kengroq qo'llanilib, asosan nazariy materiallar va murakkab masalalarni o'rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida murakkab tushunchalar izchil ochib beriladi. Ushbu metodning samaradorligi o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog'liq.

Ma'ruza – katta hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodidir. Uning asosiy xususiyatlari mantiqiy izchillik, axborotning ko'pligi va bayonning tizimliligidan iborat. Maktab amaliyotida ma'ruza asosan yuqori sinflarda qo'llaniladi, chunki u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma'ruza metodi tushuntirish va suhbat metodlarining bosqichma-bosqich rivojlangan shakli bo'lib, bir vaqtning o'zida o'quvchilarni konspekt tuzishga ham o'rgatadi. Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda ko'rgazmali metodlar ham muhim o'rin tutadi. Tasvir (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsa-da, didaktikada alohida o'rganiladi. U narsa, hodisa va jarayonlarni chizma, portret, rasm, fotosurat, yassi model va boshqa tasviriy vositalar orqali ifodalashni nazarda tutadi. Namoyish (demonstratsiya) metodi o'rganilayotgan obyektning harakat dinamikasini ochib berishda, shuningdek, uning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishini to'liq yoritishda qo'llaniladi. Tabiiy obyektlarni namoyish etishda dastlab tashqi belgilariga (shakli, hajmi, miqdori va o'zaro munosabatlari), so'ng ichki tuzilishi va xususiyatlariga e'tibor qaratiladi.

Mashq – aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni ko'p marta takrorlash orqali ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodidir. Mashqlar og'zaki, yozma, grafik, ijtimoiy foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo'linadi. Laboratoriya ishlari o'quvchilarning jihozlar, maxsus uskunalar va texnik vositalardan foydalangan holda tajribalar o'tkazish metodidir. Ular asosan tabiiy fanlarni o'qitishda qo'llaniladi. Mazkur metod o'quvchilarda asbob-uskunalar bilan ishlash, o'lchash ishlarini bajarish va natijalarga ishlov berish ko'nikmalarini shakllantiradi. Laboratoriya ishlarini tashkil etish maxsus jihozlar, materiallar va vaqt talab qiladi. Biroq bunday faoliyat o'quvchilarning mustaqil ravishda tajriba va o'lchash ishlarini olib borish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Ta'lim metodlarini tanlash dars jarayonini mazmunli tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Pedagogika fanida o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida ta'lim metodlarini tanlashga oid o'quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar hamda aniq holatlarga bog'liq muayyan yondashuvlar vujudga kelgan. Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- Ta'limning umumiy maqsadlari.
- Fanning va o'rganilayotgan mavzuning mazmuni hamda o'ziga xosliklari.
- Muayyan fanni o'qitish metodikasining o'ziga xosliklari.
- Materialni o'rganishga ajratilgan vaqt.
- O'quv mashg'ulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni.
- O'quvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari.
- O'quvchilarning tayyorgarlik darajasi.

- Ta'lim muassasasining moddiy ta'minlanganligi.
- O'qituvchining nazariy, amaliy va metodik tayyorgarligi, pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi.

Ta'lim metodlari o'quv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Shunga ko'ra, ularning uch jihati mavjud: umumdidaktik, xususiy didaktik va xususiy metodik. Umumdidaktik jihat o'zida obyektiv mohiyatni, didaktik metodning imkoniyatlari va talablarini aks ettiradi. Bu esa o'quv jarayoni davriga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshiriladi. Umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim metodlarining umumdidaktik, xususiy didaktik va xususiy metodik jihatlari pedagogik adabiyotlarda batafsil yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
6. Djurayev R.X., Tolipov O'.Q. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. – Toshkent: O'zPFITI, 2008.
7. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2004.
8. Zunnunov A. va boshq. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 1996.
9. www.olympic.uz
10. www.ziyonet.uz
11. www.infocom.uz
12. www.edu.uz

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.